O‘QITUVCHI KOMMUNIKATIV QOBILIYATINING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

A.A.Baxramova[1]

1. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Amaliy psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi 0009-0006-5031-8721

Mas'ul muallif: Baxramova Abira Abdullayevna, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Amaliy psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi 0009-0006-5031-8721.

e-mail: abira.bakhramova@gmail.com

Received: 13 Noyabr 2026
Accepted: 18 Noyabr 2026
Published: 23 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Baxramova, A. A. O‘QITUVCHI KOMMUNIKATIV QOBILIYATINING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI / A. A. Baxramova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — Т. 11, № 2. — B. 293–296.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchining kommunikativ qobiliyati va uning ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligiga ta’siri psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi, nutqiy faolligi, tinglay olish mahorati, empatiyasi, pertseptiv va tashkilotchilik qobiliyatlarining ta’lim sifatidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarning kommunikativ imkoniyatlari hudud va pedagogik ish staji bo‘yicha empirik o‘rganilib, kommunikativ qobiliyatning pedagogik qobiliyatlar bilan korrelyatsion aloqadorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kommunikativ qobiliyat ta’lim samaradorligi, ijobiy psixologik muhit va o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ qobiliyat, pedagogik muloqot, ta’lim samaradorligi, o‘qituvchi, pedagogik qobiliyat, muloqot madaniyati, empatiya, pertseptiv qobiliyat, nutqiy qobiliyat, pedagogik takt.

Аннотация. В статье представлен психолого-педагогический анализ коммуникативных способностей учителя и их влияния на эффективность образовательного и воспитательного процесса. Рассматриваются роль эффективного взаимодействия с учащимися, речевой активности, умения слушать, эмпатии, перцептивных и организаторских способностей в обеспечении качества образования. На основе эмпирического исследования изучены коммуникативные возможности учителей в зависимости от региона и педагогического стажа, а также корреляционные связи коммуникативных и педагогических способностей. Результаты указывают на значимость коммуникативных способностей для эффективности обучения, благоприятного психологического климата и развития отношений между учителем и учащимися.

Ключевые слова: коммуникативные способности, педагогическое общение, эффективность образования, учитель, педагогические способности, культура общения, эмпатия, перцептивные способности, речевые способности, педагогический такт.

Abstract. This article presents a psychological and pedagogical analysis of teachers’ communicative abilities and their influence on the effectiveness of teaching and upbringing. It discusses the role of effective interaction with students, verbal activity, listening skills, empathy, perceptual skills and organizational abilities in educational quality. Teachers’ communicative capacities are examined empirically by region and teaching experience, and correlations between communicative and pedagogical abilities are analyzed. The findings highlight the importance of communicative abilities for educational effectiveness, a positive psychological climate and the development of teacher–student relationships.

Keywords: communicative abilities, pedagogical communication, educational effectiveness, teacher, pedagogical abilities, communication culture, empathy, perceptual abilities, verbal abilities, pedagogical tact.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining shaxsi va uning kasbiy kompetentligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining o‘z fanini yaxshi bilishi, uning pedagogik mahorati hamda psixologik tayyorgarligi bilan birga uning kommunikativ qobiliyati ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishda muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati o‘quvchilar bilan samarali muloqotga kirishish, ta’lim jarayonini tashkil qilish va o‘zaro munosabatda ijobiy muhitni yaratishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchining ota-onalar, hamkablari bilan samarali muloqot o‘rnatish, ular bilan fikrlashish va hamkorlik qilish qobiliyati hamdir. Kommunikativ qobiliyati yaxshi rivojlangan o‘qituvchilar o‘quvchilarning ehtiyoji va qiziqishlarini yaxshi tushunadilar, o‘quvchilar bilan samarali hamkorlik qiladilar.

O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati ta’lim jarayonida bir qancha vazifalarni bajaradi. Jumladan, birinchidan, ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi, ya’ni, o‘qituvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan o‘quvchilarga yetkazishsa, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi oson bo‘ladi. Ikkinchidan, kommunikativ qobiliyat o‘qituvchi – o‘quvchi o‘rtasida ishonchli munosabatni shakllantiradi, ya’ni, kommunikativ qobiliyati

yaxshi shakllangan o‘qituvchiga nisbatan o‘quvchilarning ishonchi ortadi, bu holat o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshishiga sabab bo‘ladi. Uchinchidan, o‘qituvchining kommunikativ qobiliyati tarbiviy ta’sirni kuchaytiradi, o‘qituvchi tomonidan bildirilgan fikr va munosabat o‘quvchi shaxsi sifatlarini shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiy, bu kabi samimiy muloqot esa ijobiy tarbiyaviy natijalari olib keladi. To‘rtinchidan, o‘qituvchining samarali kommunikativ qobiliyati ta’lim- tarbiya jarayonida yuzaga keladigan mojaroli vaziyatlarni o‘z vaqtida anglab oladi va ularni ijobiy, tinch yo‘l bilan hal qiladi.

O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati uni nutqining ravon va ta’sirchanligi, diqqat bilan tinglashi, muloqotdagi xushmuomalaligi, hissiy barqarorligi, nizolarni hal qilish mahorati, ishontira olishi va o‘quvchilar jamoasini boshqara olishida namoyon bo‘ladi. Ta’lim samaradorligini oshirishda o‘qituvchining kommunikativ qobiliyatining ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda o‘qituvchining muloqot madaniyati yaxshi rivojlangan bo‘lishi lozim. Kommunikativ qobiliyati yaxshi rivojlangan o‘qituvchi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘quvchilar guruhida ijobiy psixologik muhitni yaxshilaydi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, ularning faolligini shakllanishishiga va ta’lim sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan ham pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan va biz o‘z tadqiqotimizda belgilab olgan vazifadan kelib chiqqan holda o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini o‘rganishga harakat qildik, buning uchun biz “O‘qituvchilar kommunikativ imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash” metodikasidan “Ryaxovskiy testi) foydalandik, uning tadqiqot natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘qituvchilar kommunikativ imkoniyatlar va qobiliyatlarini aniqlash metodikasining tadqiqot natijalari

Shkala	Hudud	n	O‘rtacha qiymat	Satandrat og‘ish	t	p
O‘qituvchining kommunikativ qobiliyat	Samarqand	60	15,6585	7,09822	2,623	,010**
	Qarshi	36	17,8378	3,62486		

Izoh: **-p≤0,01

O‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyatining rivojlanganlik darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ahamiyatli ijobiy ko‘rsatkichni namoyon qilmoqda. (Samarqand 15,6886; Qarshi 14,8378; t=2,623; p≤0,01). Ularning ko‘rsatkichlari o‘rtasida biroz tafovut kuzatilgan bo‘lsada, natijalar metodika izohi bo‘yicha ijobiy darajani ko‘rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, o‘qituvchilarda kommunikativ qobiliyat yaxshi rivojlangan bo‘lib, ular atrofdagilar, hamkasblari va o‘quvchilar bilan tez muloqotga kirishadilar, ular qiziquvchan, suhbatdoshlarini qiziqish bilan tinglaydilar, suhbatdoshlariga hamdard bo‘la olishlari, o‘z fikrlarini, nuqtai nazarlarini hissiyotga berilmasdan himoya qila olishlari, o‘zlariga ishonishlari, qiyinchiliklardan cho‘chimasliklari kabi jihatlarda namoyon bo‘lar ekan. Shuningdek, ular ko‘pincha shovqinli davralarni uncha yoqtirmasliklari, osoyishtalikni, tartib-intizomga ko‘proq e’tibor qaratishlari va atrofdagilar bilan samarali muloqot o‘rnata olishlari ham ma’lum bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari tahlili yana o‘qituvchilarda kommunikativ qobiliyatning tarkibiy qismi hisoblanadigan nutqiy, tinglay olish, empatiya, pertseptiv hamda muloqotni boshqarish komponentlarini yaxshi rivojlanganligi namoyon bo‘ldi, bu o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini kuzatish va ular bilan o‘tkazilgan suhbat jarayonida ham kuzatildi.

Shuningdek, biz tadqiqotda olingan natijalarni o‘qituvchilarning pedagogik ish staji negizida ham tahlil qilishga harakat qildik, uning tahlil natijalari quyidagi 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval

O‘qituvchilar kommunikativ imkoniyatlari va qobiliyatlari metodikasining pedagogik staj bo‘yicha natijalar tahlili (ANOVA)

	Pedagogik ish staji	n	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	f	p
O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati	5 yilgacha	28	15,9286	6,68292	1,627	,202
	15 yilgacha	42	15,1316	7,17417		
	15 yildan ortiq	26	12,9615	3,89339		

Pedagogik ish staji 5 va 15 yilgacha bo‘lgan o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyati bo‘yicha tadqiqot natijalari 15,9289 va 16,1316 balllarni ko‘rsatmoqda. Bu natijalar shundan dalolat beradiki, pedagogik staji 15 yilgacha bo‘lgan o‘qituvchilarning qiziqish doirasi keng, o‘ta qiziqish bilan tinglashlari, suhbatdoshlarini bildirgan mulohazalarini qo‘llashlari, o‘z fikr-mulohozalarini va o‘z nuqtai nazarlarini osoyishtalik bilan himoya qilishlari va o‘ta shovqinli davralarni ko‘p ham yoqtirmasliklari bilan ifodalanar ekanlar. Shuningdek, ushbu natijalar o‘qituvchilardan nutqiy faollik, boshqalarni tinglay olish mahorati, empatiya, reflektsiya, ijtimoiy pertseptsiya va muloqotni boshqara olish xususiyatlarini ham shakllanganligidan dalolat beradi.

Pedagogik staji 15 yildan ortiq bo‘lgan o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyat darajasi 12,3615 ball natijani ko‘rsatmoqda. Bu holatni biz o‘qituvchilarning atrofdagi odamlar bilan tez muloqotga kirisha olishi, til topisha olish

xususiyati, ko‘plab yangi odamlar bilan tanishish istagini yuqoriligi, o‘ta qiziquvchanligi, o‘ta sergapligi, barcha masalalar bo‘yicha o‘z fikrini bildirishga moyilligi, atrofdagi odamlarni iltimoslarini rad etolmasligi, biroz shoshqaloqligi, ba’zi masalalarni hal qilishda sabrsizlik qilishi bilan izohlashimiz mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini samaradorligi pedagogik muloqot madaniyati va o‘qituvchi-o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatiga ham bevosita bog‘liqligini ta’kidlash lozim.

Shuningdek, biz tadqiqotmiz natijalarini tahlil qilish jarayonida o‘qituvchining kommunikativ imkoniyatlari va qobiliyati metodikasi hamda pedagogik qobiliyatlar metodikasi natijalarining o‘zaro korreltsion aloqadorligini ham tahlil qilishga harakat qildik, uning natijalari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O‘qituvchining kommunikativ imkoniyatlari va qobiliyati va pedagogik qobiliyatlar metodikalari natijalarining o‘zaro korrelyatsion aloqadorlik tahlili

	Didaktik qobiliyat	**Akademik qobiliyat**	**Pertseptiv qobiliyat**	**Nutqiy qobiliyat**	**Tashkilotchilik qobiliyati**	**Avtoritar qobiliyat**	**Kommunikativ qobiliyat**	**Pedagogik xayol qobiliyati**	**Diqqatni taqsimlash qobiliyati**
O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati	,357**	,254**	,336**	,269*	,255*	,330**	,292*	,292*	,348**

Izoh:*-p≤0,05; **-p≤0,01.

Korrelyatsion tahlil natijasiga ko‘ra, o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyati bilan didaktik qobiliyati o‘rtasida ijobiy ahamiyatli tarzda aloqadorlik aniqlandi (,257; p≤0,01). Bu aloqadorlikni o‘qituvchilarning ta’lim berishda o‘quvchilarga o‘quv materialini aniq, tushunarli yetkazishda, ularni o‘z faniga qiziqishini oshirishda, o‘quvchilarni tayyorgarlik darajasini bilishida, dars mazmunini sodda shaklda tushuntirishda kommunikativ qobiliyatning muloqotga kirisha olish, o‘quvchilarni pedagogik muloqot madaniyati kabi jihatlarning muvofiq holda namoyon bo‘lganligi bilan ifodalash mumkin.

O‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyati hamda o‘qituvchilarning akademik qobiliyatining korrelyatsiya tahlili ular o‘rtasidagi aloqadorlik ahamiyatli jihatda ijobiy bog‘lanishda namoyon bo‘ldi (,254; p≤0,05). Ushbu natija asosida aytish mumkinki, o‘qituvchilarning o‘z fanini yaxshi bilishi, o‘z fani bo‘yicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi, o‘z fanidan ijodiy izlanishlar olib borishi natijasida egallagan bilimlarini dars jarayonida samarali foydalanish va o‘quvchilarga yetkazib berishda o‘qituvchining kommunikativ imkoniyati va qobiliyati muhim ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanar ekan, bu holat o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan suhbat jarayonida ham ayon bo‘ldi.

Korrelyatsion tahlil o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyatining pertseptiv qobiliyat bilan ijobiy aloqadorlik ahamiyatli darajada namoyon bo‘lmoqda (,336; p≤0,01). Aytish mumkinki, o‘qituvchilar o‘quvchilarning ichki his-tuyg‘ularini, ularning ruhiy holatlarini his qilishi, o‘quvchilarga hamdard bo‘lishida o‘qituvchilarning kommunikativ mahorati, o‘quvchilar bilan samarali til topishi, o‘zaro munosabatni o‘rnata olishi, pedagogik takt kabi xususiyatlari muhim o‘rinni egallashi bilan xarakterlanar ekan. Shuningdek, o‘qituvchilarning psixologik kuzatuvchanligi o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishda pedagogik muloqotning samarali vositalarini qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etar ekan.

Kommunikativ qobiliyat hamda o‘qituvchilarning nutqiy qobiliyatlarining tadqiqot natijalari o‘rtasidagi tahlil ular orasida ijobiy korrelyatsion aloqa ahamiyatli darajada ekanligini ko‘rsatmoqda (,269; p≤0,05). Mazkur tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, o‘qituvchilarning kommunikativ imkoniyatlari, ya’ni, ularning muomala madniyati, pedagogik takti, o‘quvchilar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishi o‘qituvchilarning o‘z fikrini aniq, oddiy va tushunarli tarzda o‘quvchilarga bayon qilishi, nutqining ravonligi, mazmundorligi, jumlalarning mantiqiy bog‘liqligi, nutqining grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘yilishi bilan bog‘liq ekan, bu holat o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatda ham o‘z tasdig‘ini topdi.

O‘qituvchilardagi kommunikativ qobiliyat bilan tashkilotchilik qobiliyati o‘rtasida ijobiy korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlandi (,255; p≤0,05). Ushbu natijalar asosida aytish mumkinki, o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyati o‘quvchilar jamoasini uyushtirish va jipslashtirishda, o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishda, o‘quvchilarni hamkorlik qilishda, o‘quvchilarni o‘zaro nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda, shuningdek, o‘qituvchilarning o‘z faoliyatlarini (mashg‘ulotlarni) tashkil etishda kommunikativ qobiliyatning pedagogik muloqot pedagogik takt, muomala madaniyati va o‘quvchilar bilan til topisha olish komponentlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lar ekan, bu korrelyatsion tahlil natijalarida ham ko‘rinib turibdi.

Kommunikativ qobiliyat bilan o‘qituvchilarning avtoritar qobiliyatining korrelyatsion tahlili natijalari ular o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanishning ahamiyatli darajasini ko‘rsatmoqda (,230; p≤0,01). Aytishimiz mumkinki, ushbu ijobiy bog‘lanish o‘qituvchining avtoritar qobiliyati komponentlari bo‘lgan, ya’ni, o‘quvchilarga bevosita hissiy- irodaviy ta’sir ko‘rsata olishda, o‘quvchilarni ta’lim-tarbiyaga rag‘batlantira olishda, o‘quvchilar shaxsini hurmat qilishda, o‘z harakatlaridagi qat’iylik, talabchanlaik va adolatlilik xislatlarini namoyon qilishda o‘qituvchidagi pedagogik muomala, pedagogik takt, muloqot madaniyati o‘qituvchining obro‘siga qay darajada bog‘liq ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalarining korrelyatsion aloqadorlik tahlili o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik xayol va diqqatni taqsimlash qobiliyatlari o‘rtasida ham musbat bog‘liqlikni ahamiyatli darajada ekanligini namoyon qildi (,292; p≤0,05 va ,348; p≤0,01). Demak, ushbu korrelyatsion tahlil o‘qituvchilarning o‘z harakatlari natijalarini oldindan tasavvur qilishi, o‘quvchilar shaxsi rivojlanishi istiqbolini rejalashtira olishi, o‘quvchilarning shaxs xususiyatlarini shakllantirishida ularning psixologik kuzatuvchanligi, o‘quvchilarning diqqatini muayyan bir maqsadga yo‘naltira olishda

o‘qituvchining o‘quvchilar bilan til topisha olish, ularning muomala madaniyati, pedagogik takt va pedagogik muloqot kabi kommunikativ qobiliyat komponentlari muhim ekanligini ko‘rsatib bermoqla. Bu natija kommunikativ qobiliyatning ta’lim-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatida muhimomil ekanligidan dalolat beradi.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyati ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan samarali munosabat o‘rnatish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish imkonini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Kan-Kalik V.A. Uchitelyu o pedagogicheskom obshchenii. – M.: Prosveshchenie, 1987.
[2] Leontev A.A. Pedagogicheskoe obshchenie. – M.: Znanie, 1979.
[3] Markova A.K. Psixologiya truda uchitelya. – M.: Prosveshchenie, 1993.
[4] Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – M.: Logos, 2004.
[5] Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya. – M.: Visshaya shkola, 1990.
[6] Fetiskin N.P., Kozlov V.V., Manuylov G.M. Sotsialno-psixologicheskaya diagnostika razvitiya lichnosti i malix grupp. – M.: Izd-vo Instituta psixoterapii, 2002.